

O'ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJINING HUQUQIY ASOSLARI VA OAVDA YORITILISHI

Sultonov Javohir

"Dalil.uz" sayti jurnalisti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11276939>

Annotatsiya. Ushbu tezisda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlanishi shuningdek OAVda yoritish masalalari xususida so'z boradi. Shuningdek mazkur tezis mavzusi yuzasidan ilmiy adabiyotlardagi fikrlar umumlashtirilib tahlil yuritiladi.

Kalit so'zlar: OAV, turizm, islohotlar, telekanallar, turizm terminologiyasi.

Abstract. This thesis deals with the development of the tourism sector in our country, as well as issues of media coverage. Also, the opinions of the scientific literature on the topic of this thesis are summarized and analyzed.

Key words: mass media, tourism, reforms, TV channels, tourism terminology.

Mustaqil o'lkamizning jahon hamjamiyatida keng miqyosda e'tirof etilishi, dunyoning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlari bilan o'zaro do'stona munosabatlarning yanada barqarorlashib borishi, tashrif buyurayotgan turistlar oqimining yil sayin ortib borishi, yurtimizda mavjud yangidan-yangi turizm imkoniyatlarining kashf etilayotganligi va boshqa shu kabi o'zgarishlar fikrimizning yaqqol dalili bo'la oladi. Boshqa iqtisodiy tarmoqlarda bo'lgani kabi, turizm sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatimizga tashrif buyuradigan turistlarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada takomillashtirish va bozor talablariga to'liq javob beradigan turizm sanoatiga ega mamlakat sifatida dunyo hamjamiyati e'tiborini jalb etishdir. Respublikamiz turizmida xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimini rivojlantirishning asosini turistik tashkilotlar, joylashtirish vositalari va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirish tashkil etadi¹. Mamlakatimizda ish o'rinlari yaratish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, valyuta tushumlarini ko'paytirish, aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish kabi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yaqin istiqbolda hal qilish uchun keng salohiyatga ega bo'lgan turizm sohasini rivojlantirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilinishi davlatimiz tomonidan turizm sohasida amalga oshirilayotgan siyosatning mantiqiy davomi bo'lib, turizm sohasini jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy, ma'muriy va huquqiy muhitni yaratgan holda, eng samarali tartibni joriy etish, hududlarning iqtisodiy salohiyati va daromadlari bazasini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish, yurtimizga keladigan turistlar oqimini ko'paytirish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faol va kompleks ilgari surishga qaratilgan.

Xususan, qaror bilan sohada me'yoriy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, O'zbekistonga sayohatlarni arzonlashtirish, yurtimizning barcha hududlarida turizmni va soha bilan bog'liq infratuzilmani rivojlantirish, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va yangi turizm obyektlari tashkil etish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda faol va kompleks ilgari surishga qaratilgan 2018-

¹ <https://uzbektourism.uz/uz/ob-nk-uzbekturizm/vazifalari-va-funksiyalari>

2019-yillarda turizmni rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Ayni paytda mamlakatimiz hududlarida zamonaviy turizm infratuzilmasini yaratish chora-tadbirlariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu maqsadda Dasturga muvofiq, Andijon viloyati Xonobod shahrida dam olish hududlari, Jizzax viloyati Forish va Arnasoy tumanlarida Aydar-Arnasoy ko'llari sohilida beshta yangi zamonaviy dam olish hududlari tashkil etish, Qashqadaryo viloyati Shahrisabz va Qarshi shaharlarida to'rt yulduzli mehmonxonalar, Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani Chimyon tog' massivida mehmonxona majmuasi barpo etish, shuningdek, Navoiy viloyatida To'dako'lning janubiy sohilida ichki turizm va Aydarko'l sohillarida xorijlik turistlar uchun plyajlar tashkil etish ko'zda tutilgan.

Mazkur hujjatda turizmni targ'ibot qilish bilan bog'liq yana bir muhim masalaga e'tibor qaratilgan. Xususan, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining «Dunyo bo'ylab» telekanali O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining ichki turizm, dam olishning faol turlari va sport turizmini rivojlantirish, madaniy meros ob'ektlari va tabiiy boyliklar, shu jumladan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni saqlash va ulardan foydalanish bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarni yoritish masalalari bo'yicha bosh axborot hamkori sifatida belgilandi.

References:

1. Mirziyoev SH. Konstitutsiyamiz qabul qilingan kunning 25 yilligi munosabati bilan bo'lib o'tgan tantanali marosimdagi nutqi. // Xalq so'zi. 2017-yil 9- dekabr.
2. <https://uzbektourism.uz/uz/ob-nk-uzbekturizm/vazifalari-va-funksiyalari>
3. <http://www.памятплус.ру>